

Моя профессиональная
карьера



Научно-практический электронный журнал

МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА

ISSN 2658-7998



9 772658 799001 >

Выпуск №35 (том 8)
(апрель, 2022)



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №25 (том 8) (апрель,
2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Пестерев С.В. – гл. редактор, отв. за выпуск

Батурин Сергей Петрович	кандидат исторических наук, доцент
Боброва Людмила Владимировна	кандидат технических наук, доцент
Богданова Татьяна Владимировна	кандидат филологических наук, доцент
Демьянова Людмила Михайловна	кандидат медицинских наук, доцент
Еремеева Людмила Эмировна	кандидат технических наук, доцент
Засядько Константин Иванович	доктор медицинских наук, профессор
Колесников Олег Михайлович	кандидат физико-математических наук, доцент
Коробейникова Екатерина Викторовна	кандидат экономических наук, доцент
Ланцева Татьяна Георгиевна	кандидат экономических наук, доцент
Нобель Артем Робертович	кандидат юридических наук, доцент
Ноздрина Наталья Александровна	кандидат педагогических наук, доцент
Павлов Евгений Владимирович	кандидат исторических наук, доцент
Петрова Юлия Валентиновна	кандидат биологических наук, доцент
Попов Сергей Викторович	доктор юридических наук, профессор
Табашникова Ольга Львовна	кандидат экономических наук, доцент
Тюрин Александр Николаевич	кандидат географических наук, доцент
Усубалиева Айнурा Абдыжапаровна	кандидат социологических наук, доцент
Фаттахова Ольга Михайловна	кандидат технических наук, доцент

TIL O`RGATISHDA ZAMONAVIY PEDTEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI Baratova Istora Furqat qizi, Nurmuxamedova Sanobar Kudratovna, Mansurov Jamshid Ruzimatovich, Muxitdinova Xurshida Shavkatullayevna	459
CHEZ TIL O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY METODLAR Abdullayeva Nasiba Miragzamovna, Xakimova Nargiza Shavkatovna, Karimjonova Zarina Ayubjon qizi, Norboboyeva Zebiniso Xolmurodovna	464
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN FUNNY TA`LIM O`YINLARI Tillayeva Dildoraxon Muxamatmusayeva, Bobonazarova Mohinur Qodir qizi, Madaminova Gulnozaxon Boxodirjon qizi, Islomova Madina Hasan qizi	469
TRANSPORT VOSITLARI OQIBATIDA ASFALTBETON QOPLAMADA HOSIL BO'LADIGAN DEFORMATSIYALARINI TA'SIRINI TADQIQ QILISH Beknazarov F.X., Ismoilova Dilafruz G'afur qizi	475
ISSIQ VA QURUQ IQLIM SHAROITLARIDA AVTOMOBIL DVIGATEL YOQILG'I TEJAMKORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI Biloliddin Jamoliddinov Ziyobiddin o'g'li, Mamatqulov Alisher Panji o'g'li	484
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПО СТРОИТЕЛЬСТВУ ШУМОПОГЛАШАЮЩИХ ПОКРЫТИЙ Касимов Ибрагим Иркинович, Халиков Одилжон Исан угли	487
MAKTABGACHA TA'LIMDA TA'LIM TEXNOLOGIYASINING VARIATIVLIGI Bolibekova Maftuna Shermuhammedovna	492
MUHAMMAD YUSUF HAYOTI VA IJODI Xudoikulova Mastura Shuxratovna	495
«OZOD SHARAFIDDINOV JASORATLI SO'Z SOHIBI» MAVZUSIDA BADIY-FALSAFIY FIKRLAR Bobur Yangiboy o'g'li Hakimov	500
DUNYO MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TIZIMI VA BUXORO XALQ RESPUBLIKASI HUKUMATINING O'ZIGA XOS YO'LI Rahmonov Kamol Jamolovich, Muzaffarova Farida Muxtor Qizi	504
GULXANIY MASALLARIDA MAJOZIYLIK Saidova Muxlisa Narmetovna	513
SHUKUR XOLMIRZAYEV "OT EGASI" ASARIDA INOD OBRAZNING BADIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI HAQIDA Bobur Yangiboy o'g'li Hakimov	517

ФИО авторов: *Rahmonov Kamol Jamolovich*

Buxoro davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrasi dosenti, tarix fanlari nomzodi

Muzaffarova Farida Muxtor Qizi

Buxoro davlat universiteti magistiri

Название публикации: «DUNYO MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TIZIMI VA BUXORO XALQ RESPUBLIKASI HUKUMATINING O‘ZIGA XOS YO‘LI»

**THE SYSTEM OF GOVERNANCE OF THE COUNTRIES OF THE WORLD
AND THE PECULIAR WAY OF THE GOVERNMENT OF THE BUKHARA
PEOPLE’S REPUBLIC**

Rakhmonov Kamol Jamalovich

*Bukhara state of university, Associate Professor of World History, candidate
of historical sciences*

Muzaffarova Farida Muxtor Qizi

Master of Bukhara State University

**СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ СТРАНАМИ МИРА И СВОЕОБРАЗИЕ
ПРАВЛЕНИЯ БУХАРСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ**

Рахманов Камол Жамолович

*Кандидат исторических наук, доцент кафедры всеобщей истории
Бухарского государственного университета*

**Музаффарова Фарида Мухтор Қизи
Магистр Бухарского государственного университета**

Annotasiya: *Maqolada 1920-1924 yillarda mavjud bo‘lib turgan Buxoro Xalq Respublikasi hukumatining dunyo mamlakatlari boshqaruv tizimi tajribasidan foydalanishga urinishi, shuningdek, o‘ziga xos davlat boshqaruvi yo‘li sifatida qurultoylarning o‘tkazilishi, uning qarorlari va tarixiy ahamiyati bayon etilgan.*

Abstract: In the following article the attempt of the usage of the government system of world countries by the Bukhara People's Republic existing in 1920-1924, also the conduct of qurultais as a particular way of state administration, its resolutions and historical significance is expressed.

Резюме: В статье интерпретируется попытка Бухарской Народной Республики существований в 1920-1924 гг. в использовании стран мира, также проведенные курултаев в качестве специфического пути управления её решения и историческая значимость.

Kalit so‘zlar: monarxiya tartibi, “inqilob qahramonlari”, hukumat qurultoylari, gazeta muxbirlari, qurultoy muhokamasi, kasabalar uyushmasi, yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar qo‘mitasi

Keywords: order of monarchy, ‘heroes of monarchy’, qurultais of government, correspondents of newspapers, qurultai discussion, trade unions, youth union, women’s committee.

Ключевые слова: порядок монархии, герои революции, курултаи правительства, обсуждения курултая, профессиональные союзы, союз молодёжи, комитет женщин.

Kirish. 1920 yil avgust oxirlari va sentyabr oyi boshlarida Buxoro amirligi ag‘darilganidan keyin uning o‘rnida tuzilgan Buxoro Xalq Respublikasi hukumati oldida eng murakkab vazifa-davlat boshqaruving yo‘lini tanlash va bu borada dunyo sivilizasiyasiga yaqinlashish bo‘lib turardi. Sharq davlatlari hisoblangan Afg‘oniston, Eron, Turkiya singarilar o‘tmishda monarxiya tartibida boshqarilgan davlatlar bo‘lib, o‘zlarining siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti jihatidan Buxoro Xalq Respublikasi darajasidan deyarli farq qilmas edi. Shuning uchun dastlabki kunlardanoq respublikaning taraqqiyat parvar kuchlari hukumat rahbari Fayzulla Xo‘jayev rahbarligida boshqaruving demokratik tamoyillariga asoslangan, ayni paytda iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy sohalarda zamon taraqqiyoti bosqichlarida turgan mamlakatlarga intilardi. O‘sha paytdagi tarixiy vaziyat G‘arbiy Yevropa davlatlari

va AQSH singari mamlakatlarning demokratik yo‘lini tanlashga hamda ular bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga imkon bermasdi. Buning o‘ziga xos sabablari bor edi. Birinchidan, xalq o‘rtasida hatto, hukumat a’zolari siyosiy ongida amirlik monarxiyasi boshqaruvining asoratlari hali kuchli edi. Ikkinchidan, “inqilob qahramonlari” bolshevik hukumatining tazyiqi va aralashuvi davom etar, qizil armiya qo‘sishlari hali Buxoroni tark etmagan edi. Uchinchidan, hukumat a’zolari o‘rtasidagi bo‘linish o‘ng, so‘l, mo‘tadil g‘oyaviy oqimlar respublika boshqaruvini o‘z yo‘nalishlariga burib yuborishga harakat qilayotgan edilar.

Mazkur maqolada “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari materiallari orqali Buxoro Xalq Respublikasi xukumati boshqaruvida qanday yo‘nalish tanlanganligi, hukumat qurultoylari o‘tkazilishining maqsad va vazifalari, hukumat a’zolarining davlat boshqaruvi sohasidagi qarashlari imkon qadar tahlil etiladi. Tahlilimiz shuni ko‘rsatdiki, yangi hukumat boshqaruvda o‘ziga xos va o‘ziga mos yo‘nalishni tanladi.

Amirlikda amal qilgan monarxiya tuzumi o‘rniga demokratik tamoyillarga o‘tishning sodda ko‘rinishi hisoblangan qurultoylar va ularda qabul qilingan qarorlar yangi hukumat boshqaruvi uchun siyosiy ahamiyat kasb etgan.

Ma’lumki, 1920-1924 yillar davomida 5 marta Butun Buxoro xalq vakillarining qurultoyi o‘tkazilgan. Uning tafsilotlari hamda har bir qurultoyda hal qilingan masalalar ko‘lami va natijalari gazeta muxbirlari, mas’ul xodimlari tomonidan tahlil qilib borilgan[1].

1920 yilning 6 oktyabr kuni sobiq amirning “Sitorai Moxi Xossa” saroyida umumbuxoro xalq vakillarining birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tgan. “Qurultoyda Buxoroning hamma shahar va qishloqlaridan kelgan ja’mi bir ming sakkiz yuz to‘qson to‘rtta kambag‘al va mehnatkash vakillar hozir bo‘lg‘onlar, majlis kunduz soat o‘n bir yarimda Buxoro hukumat qo‘mitasining markaziy inqilob qo‘mitasi raisi o‘rtoq Abdulqodir Muhiddinov tomonidan ochiq deb e’lon qilindi”[2] - deb ma’lumot beradi “Buxoro axbori” gazetasи.

Amirlik tartibining oddiy xalq turmushi uchun keyingi yillarda ijobjiy o‘zgarishlar qilmaganligi va o‘rta asr monarxiya boshqaruvi esa iqtisodiy hayotga

salbiy ta'sir ko'rsatganligi qurultoy ishida qatnashayotgan xalq vakillarida yangi hukumatni qo'llash istagini kuchaytirgan. "Buxoro axbori" gazetasining 1920 yilning oktyabr va noyabr oylarida chop etilgan bir qator sonlarida qurultoyning jo'shqin bir ruhda o'tganligidan, unda qabul qilingan muhim qarorlardan, istiqbolda hukumat boshqaruvi tizim uchun dolzarb ijtimoiy-siyosiy vazifalar belgilanganligidan ayrim hukumat a'zolari va faol publisistlar ilhomlanib maqolalar yozganlar[3]. Qurultoy muhokamasi bilan bog'liq mazkur maqolalar davlat siyosati darajasidagi muhim tarixiy jarayonlar bilan tanishishga imkon beradi.

Qurultoyda qilingan nutq va ma'ruzalar bilan tanishilganda, yangi hukumat nomi Buxoro Sho'rolar Jumhuriyati tarzida qayd qilinganligiga guvoh bo'lindi. Gazetaning 1-8-sonlarida chop qilingan rasmiy qaror, buyruq va farmon matnlarida esa "Buxoro jumhuriyati" yoki "Buxoroi sharif sho'rolar jumhuriyati" kabi nomlarga ham duch kelindi[4]. Keyingi 4 yil davomida chop etilgan gazeta rukni, rasmiy buyruqlar, yirik mualliflik maqolalarida esa "Buxoro sho'rolar jumhuriyati" nomi deyarli barcha o'rinnarda qayd etilgan. Hatto, shu nom ostida "Buxoro axbori"ning bir necha sonlarida hukumat tuzilishi va uning faoliyatiga oid yirik maqola chop etilgan[5]. Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati degan to'liq nom o'ta rasmiy hujjatlar[6] chop etilgan satrlardagina uchraydi, xolos.

Shuningdek, davlat va hukumat rahbarlari, bosh muharrirlar, ayrim mualliflarning maqolalari "Xalq hukumati", "Fuqaro hukumati" deb nomlanganligini ko'rish mumkin[7]. Buxoro sho'rolar jumhuriyati hukumati a'zolaridan biri Qori Yo'ldosh Po'latovning "Xalq hukumati" maqolasida: "Xalq jumhuriyati e'lon etib, xalq hukumati qurganimizga 2 yil to'lib uchinchi yilga qadam qo'ydir. Lekin mamlakatimizda xalqning 99 foizining hech nimadan xabari yo'q. 2 yildan buyon surriyat, jumhuriyat, sosializm, kommunizm deb suylanadur. Xurriyat nadur, jumhuriyat nadur, kommunistlarning tutgan yo'llari va maqsadlari nimadur-buni tushunganlar oz kishilardur. Siyosiy va firqaviy odamlarimiz esa o'zlarining bilganlarini o'zlarining xususiy mulklari kabi faqat o'z qalblarida saqlab, bilmagan va tushunmagan bilan o'rtoqlashish hususida xotiralarigada keltirmaydilar. Xalq orasinda bu kunda ham tamoman eski odat, eski tushuncha, eski fikr alalxusus chin ma'nosi

bilan inqilobga qadar bo‘lgan eskilik hukm suradur. Inqilobdan so‘ng hech bir narsa o‘zgarmagan, o‘zgarmoq ehtimoli ham ko‘rilmagan. Hozirda biroz o‘zgarish ko‘rilsada haqiqatda eski urf–odat bilan boshlamoqdamiz. Hukumat va idora ishlarimizga kelsak, ish ishlamoqqa tilagan kabi muassasalar safiga muassasa va idoralar tashkil etsakda ish bo‘yicha kishilarimizning bo‘lgan-bo‘lmaganlarini, xalq manfaatlaridan uzoq turgan ajnabiylar kabi bo‘lib ishlaganlari uchun idora ishlarimizda kamchiliklar his etmakdamiz. Agar biz bugundan boshlab haqiqiy ijtimoiy va madaniy inqilob yasamasak, u vaqtida biz yana shu amir vaqtindagi eski buxoroliklar kabi nodon, johil, dunyodan bexabar turamiz. Idoralarimizning tartibsizligiga sabab butun muqaddas vaqtlarini qog‘ozlarga imzo qo‘ymoqdan iboratligidur. Ish boshinda bo‘lg‘on bunday o‘rtoqlarimizni xalq vatanfurushligiga shubha etmaymiz”[8] – kabi fikrlarni o‘qib olishimiz mumkin.

Muvaqqat inqilobi Buxoro jumhuriyati qo‘mitasi raisi Abdulqodir Muhiddinov o‘z maqolasida: “... bilingkim, hukumatimiz ustida turgan kishilar orasida dorulfununga o‘qib chiqqan ilm kishilari yo‘qdur. Tajriba va ilmlari tuban darajadagi kishilardur. Sizning orangizdan chiqqan kishilardur. Mundan so‘ngra hukumat va fuqaro ikki narsa bo‘lmaydur, balki bir-birisi bilan yaqin bo‘lib, hukumat fuqaroning orzusini amalga keltiraturg‘on bir idora bo‘ladur. Mamlakatimiz xarob, xalqimiz faqir va muhtojdur. Bul xaroblik va muhtojlik orasida o‘zi uchun rohat va ishrat izlagan hukumat kishisi fuqaro dushmanidur[9]”, - deb o‘tkir tanqidiy mulhazalarni bayon etgan.

Yuqorida umumbuxoro vakillari qurultoylarida hal qilingan masalalar tahlil qilingan edi. Shu o‘rinda hukumat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etgan “Firqa qurultoyi”[10], “Buxoro ishtirokiyun firqasi qurultoyi”[11], “Turkmanlar qurultoyi”[12], “Qirg‘iz qurultoyi”[13], “Umumiylar dehqonlar qurultoyi”[14], “Kasabalar qurultoyi”[15], “Butun Buxoro muallimlarining birinchi maorif qurultoyi”[16], “Umumiylar qozilar qurultoyi”[17], “Butun Buxoro vaqf qurultoyi”[18], “Buxoro yoshlarining qurultoyi”[19], “Butun Buxoro muallimlarining ikkinchi maorif qurultoyi”[20] kabi turli sohadagi qurultoylar o‘tkazilib turilgan. Demak, barcha

nozirliklari oldida turgan vazifalar aynan qurultoy qarorlari bilan belgilab berilgan. Biroq ko‘pgina qarorlar amalga oshirilmagan, qog‘ozda qolib ketgan.

1921-1922 yillar davomida gazetada muharrirlik qilgan mashhur adib Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon Buxoro Sovet Xalq Respublikasining hukumat boshqaruvi, ichki siyosiy hayoti va xalqaro ahvol masalalarida bir qator maqolalar yozgan. Uning «Hukumat qurultoyi» maqolasida «Qurultoy nima?», «Qurultoyning xalq hayotida qanday ahamiyati bor?»-degan savollarga sodda va ravon qilib, oddiy mehnatkash xalq tushunadigan tarzda javob beriladi. «Qurultoylar azaldan bo‘lib, bu majlisga mamlakatning buyuklari, xalq tarafidan saylangan oqsoqollari, xalq foydasini tushungan olimlar to‘planardilar. Unda hukumat siyosati, idorasi, islohiyati, to‘g‘risida gapiriladi, qonunlar yasalar (qabul qilinar) edi»,[21] -deb yoziladi maqolada. Qurultoy o‘tkazish bir masala bo‘lsa, unda qabul qilingan qonun va islohottalab vazifalarni amalga tadbiq qilish ikkinchi muhim masala ekanligiga e’tibor qaratilgan. Qurultoy belgilagan vazifalarni ado qilish saylab qo‘yilgan rahbarlarga qo‘p jihatdan bog‘liq. «Saylang‘on kishilar to‘g‘ri, insofli, vijdonli vatan va xalq foydasini tushunganlar bo‘lsa, qurultoydan keyin xalq tinch, vatan saodat, hukumat muntazam bo‘lur. Yuborilg‘on vakillar bilan saylang‘on mas’ul kishilar insofsiz, sotilg‘on, zolim, quyrug‘i, tomoq va oqcha bandasi bo‘lsa ishimiz yana oqsay qolur»[22] -deb yoziladi maqolada. Bu fikrlar hozirgi davrda ham naqadar ahamiyatli ekanligi isbot talab qilmaydi.

Hukumatdagi barcha nozirliklarning tashkil topish jarayoni, nozirlarning tayinlanishi va ular boshqaruviga xos hususiyatlari[23], shuningdek, ayrim siyosiy va ijtimoiy tashkilotlar: kasabalar uyushmasi, yoshlар ittifoqi, xotin-qizlar qo‘mitasi, haqida xabar beruvchi maqolalar bosilgan[24]. Bu maqolalar orqali hukumat ishida faol hisoblangan nozirlik va tashkilotlarning muhim vazifalari, qabul qilgan rasmiy hujjatlari, ustavlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Xulosa. Buxoro Xalq Respublikasining 1920-1924 yillarda bo‘lib o‘tgan qurultoylari, qurultoy qarorlarining hukumat boshqaruvi tizimidagi o‘zgarishlarga ta’siri, nozirlar, ularning hukumat boshqaruvi va holati to‘g‘risidagi qarashlari orqali

Buxoro Xalq Respublikasining davlat va hukumat boshqaruvi milliy xususiyatga ega o‘ziga xos yo‘ldan ketganligining guvohi bo‘lindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Buxoroning ilk qurultoyi //Buxoro axbori. 5-son. 1920 yil 11 oktyabr; 9-son. 1920 yil 26 oktyabr; Cho‘lpon. Hukumat qurultoyi //Buxoro axbori. 44-son. 1921 yil 10 iyul; Fayzulla Xo‘ja. Qurultoyg‘a hozirliq //Buxoro axbori. 45-son. 1921 yil 15 iyul; Buxoro Sho‘rolar Jumhuriyatining ikkinchi qurultoyi //Buxoro axbori. 50-son. 1921 yil 25 sentyabr; Uchinchi xalq qurultoyi oldida turg‘on masalalar //Buxoro axbori. 95-son. 1922 yil 12 avgust; Buxoro Sho‘rolar Jumhuriyatining uchinchi qurultoyi //Buxoro axbori. 96-son. 1922 yil 24 avgust; 97-son. 27 avgust; Ahmadov. To‘rtinchi qurultoyg‘a hozirlaninglar! //Buxoro axbori. 191-son. 1923 yil 18 avgust; To‘rtinchi Butun Buxoro Sho‘rolar qurultoyi //Ozod Buxoro. 1-son. 1923 yil 16 oktyabr; Rahmat Rafiq. To‘rtinchi qurultoyda yer-suv masalasi //Ozod Buxoro. 6-son. 1923 yil 31 oktyabr; To‘rtinchi qurultoyda vaqf masalasi //Ozod Buxoro. 7-son. 1923 yil 1 noyabr; Beshinchi Butun Buxoro Sho‘rolar qurultoyi //Ozod Buxoro. 143-son. 1924 yil 23 sentyabr.
2. Buxoroning ilk qurultoyi // Buxoro axbori, 5-son. 1920 yil 11 oktyabr.
3. Mahmud Said Ahroriy. “6 nchi oktyabr” // Buxoro axbori, 5-son, 1920 yil 11 oktyabr; Abdulqodir Muhiddinov. “Fuqaro hukumati” // Buxoro axbori, 8-son. 1920 yil 16 noyabr; Azizzoda Laziz. “Bu kunning vazifasi” // Buxoro axbori, 9-son. 1920 yil 26 noyabr.
4. Muvaqqat inqilobiy Buxoro jumhuriyati qo‘mitasi buyruq nomer: 6 (qonunlar bilan ishlovchi kishilar haqida). Buxoro axbori, 3-son, 1920 yil 29 sentyabr; Muvaqqat inqilobiy Buxoro jumhuriyati qo‘mitasi buyruq nomer: 13 (masjidlar haqida). Buxoro axbori, 3-son, 1920 yil 29 sentyabr; Buxoroi Sharif sho‘rolar jumhuriyati markaziy inqilobiy qo‘mitasi tarafidan buyruq raqam 14 (osori-atiqa, arxiv haqida). Buxoro axbori, 3-son, 1920 yil 29 sentyabr.
5. Abdulhamid Orif. Buxoro Sho‘rolar Jumhuriyati. Buxoro axbori, 30-son, 1921 yil 5 aprel; 31-son, 1921 yil 13 aprel; 33-son, 1921 yil 23 aprel; 34-son, 1921 yil 1 may.

6. Rusiya Ijtimoiy Qo'shma Sho'rolar Jumhuriyati bilan Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati o'rtasinda musohaba (shartnama). Buxoro axbori, 11-son, 1920 yil 1 dekabr; Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining uchinchi xalq qurultoyi. To'rtinchi majlis davomi (o'rtoq F.Xo'ja ma'ruzasi. Ayrim nazoratlarning ishlari haqida). Buxoro axbori, 101-son, 1922 yil 28 sentyabr; Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati markaziy ijroqo'm a'zolarining umumiyligi yig'ilishi (o'rtoq M.Aminov ma'ruzasi). Buxoro axbori, 119-son, 1922 yil 21 dekabr.
7. Qori Yo'ldosh. Xalq hukumati. Buxoro axbori, 105-son, 1922 yil 26 oktyabr; Abdulqodir Muhiddinov. Fuqaro hukumati. Buxoro axbori, 8-son, 1920 yil 21 noyabr.
8. Qori Yo'ldosh. Xalq hukumati. Buxoro axbori, 105-son, 1922 yil 26 oktyabr.
9. Abdulqodir Muhiddinov. Fuqaro hukumati. Buxoro axbori, 8-son, 1920 yil 21 noyabr.
10. Buxoro axbori. 22-son. 1921 yil 1 fevral.
11. Buxoro axbori. 26-son. 1921 yil 1 mart.
12. Buxoro axbori. 31-son. 1921 yil 13 aprel.
13. Buxoro axbori. 95-son. 1922 yil 12 avgust.
14. Buxoro axbori. 128-son. 1923 yil 21 yanvar.
15. Buxoro axbori. 132-son. 1923 yil 8 fevral.
16. Buxoro axbori. 140-son. 1923 yil 8 mart.
17. Buxoro axbori. 145-son. 1923 yil 20 mart.
18. Buxoro axbori. 212-son. 1923 yil 10 oktyabr.
19. Ozod Buxoro. 95-son. 1924 yil 28 may.
20. Ozod Buxoro. 159-son. 1924 yil 3 noyabr.
21. A.Sulaymon «Hukumat qurultoyi». «Buxoro axbori», 1921 yil, 10 iyul, 44- son.
22. O'sha joyda.
23. Hukumat nozirlari majlisi va lavozimlarga tayinlash. Buxoro axbori, 7-son, 1920 yil 14 noyabr; Nozirlik va idoralar barchasi MIQ va XNSHga buysunishi haqidabuyruq. Buxoro axbori, 12-son, 1920 yil 3 dekabr; Ziroat nazoratida (ziroat noziri Mirzo Abdulrahim Afg'oniston safariga ketganligi sababli o'rniga o'rtoq Porso Xo'ja tayin qilinadur). Buxoro axbori, 20-son, 1921 yil 18 yanvar; Harbiya noziri

qaytdi (xarbiya noziri Ibrohimov Maskavdan qaytdi). Buxoro axbori, 29-son, 1921 yil 29 mart; Yangi harbiya noziri (A.Orif saylandi). Buxoro axbori, 33-son, 1921 yil 23 aprel; Iqtisod nazoratig‘a yangi hay’at. Nozirlarning oyliklari. Buxoro axbori, 47-son, 1921 yil 14 avgust; Toshkentga ketdi (xorijiya noziri Rahmat Rafiq muolaja uchun Toshkentga ketdi). Buxoro axbori, 87-son, 1922 yil 17 iyun va hokazo.

24. Izchilar to‘dasi ochildi //Buxoro axbori. 36-son. 1921 yil 17 may; Statistika qo‘mitasining ahamiyati //Buxoro axbori. 72-son. 1922 yil 25 fevral; Kasabalar ittifoqlarining tashkil qiluv ishlari //Buxoro axbori. 148-son. 1923 yil 29 mart. Bizda kooperasiya tashkilotlari //Buxoro axbori. 167-son. 1923 yil 7 may; Kooperasiya tashkiloti va dehqonlar //Ozod Buxoro. 17-son. 1923 yil 28 noyabr.